Аннотация: В статье описаны направления развития малого бизнеса и частного предпринимательства, роль и значение малого бизнеса в национальной экономике через экономические показатели. Выявлены преимущества малого бизнеса и частного предпринимательства в быстрой адаптации к рыночной среде, обеспечении занятости, получении доходов и, таким образом, сокращении неравенства, а также поиске решения для среднего класса собственников. Кроме того, в концепции развития малого предпринимательства основное внимание уделяется, прежде всего, поддержке субъектов малого предпринимательства, обладающих экономическим потенциалом, поощрению экономических структур, действующих в соответствии с направлениями и целями социально-экономической политики республики, взглядам, направленным на установление налоговой политики. стимулирование малых предприятий, производящих регионально значимую продукцию, расширение системы лизингового обслуживания и страхования инвестиционных рисков, создание условий, открывающих возможность предприятиям малого бизнеса с ограниченными финансовыми возможностями использовать банковские кредиты.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, проблема занятости, доля занятости в малом бизнесе и частном предпринимательстве, количество субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства, объем инвестиций в капитал малого бизнеса и частного предпринимательства, лизинговые услуги, страхование инвестиционных рисков. система рев.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarining biri sifatida “erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o‘rin egallashi kerak. Bunday vaziyatda, qanchalik og‘ir bo‘lmasin, iqtisodiy islohotlarni qat’iy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni to‘liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo‘llab-quvvatlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo‘yicha islohotlarni jadallashtiramiz” [1] deb ta’kidlagan. Jahon tajribasidan ko‘rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatda o‘rta mulkdorlar sinfining paydo bo‘lishiga, barqaror soliq solinadigan bazaning kengayishiga yordam beradi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda yangi ish joylarini ochish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog‘liq muhim ijtimoiy masalalarga ko‘mak beradi. Jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishida tadbirkorlik sohalari, jumladan, kichik biznes sohasi faoliyati muhim o‘rin egallab, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rinni egallaydi. Xalqaro valyuta jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, “bugungi kunda dunyoda 90,0 foiz korxonalar kichik va o‘rta biznesga tegishli bo‘lib, ular jahonning 63,0 foiz aholisini ish bilan ta’minlamoqda. Yevropa Ittifoqi miqyosida kichik va o‘rta biznesning umumiy salmog‘i 99,8 foizni tashkil etgani holda, aholini uchdan ikki qismini ish bilan ta’minlamoqda” [2].

Bozor munosabatlari tizimida kichik biznes quyidagi alohida xususiyatlari: ishlab chiqarish xajmi, ishlovchilarning soni va qaysi sanoat tarmogiga tegishliligi bilan tavsiflanadigan tadbirkorlik shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Kichik biznesga o‘zining mustaqil mulki va xo‘jalik mustaqilligiga ega bo‘lgan va faoliyati sohasida yuqori darajada dominant hisoblanmagan firmalar kiradi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi bu jarayondagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflanadi. Bu toifadagi subyektlarga mustaqillik berish ularda o‘z faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini yanada oshiradi, mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi muttasil orta borishiga zamin bo‘ladi.

Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki, mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda. Bunga asosan huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun barqaror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish masalalariga jiddiy e’tibor berilayotgani tufayli erishilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotida ahamiyati tobora oshib borayotgan kichik biznes subyektlari xo‘jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, mulkchilikning turli shakllari teng huquqlilik va sog‘lom raqobat asosida rivojlanib borishiga asoslanadi. O‘z mulkiga, yetishtirgan mahsulotiga sohiblik hissiga, ihtiyoridagi mol-mulk, moliyaviy va moddiy resurslarni mustaqil tasarruf etishiga ko‘ra, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to‘la mos tushadi. Uning mamlakatda bandlik muammosini hal etish, mo‘l-ko‘lchilikni ta’minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlari esa juda katta.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mavzu doirasida ko‘plab xorijiy va mahalliy mutaxassis olimlar ish olib borishgan bo‘lib, ularning tadqiqotlarini “tadbirkorlik” tushunchasiga berishgan turli yondoshuvlar bo‘yicha faoliyat olib borishganligidan dalolat beradi. Jumladan, “tadbirkor” va “biznesmen” kabi tushunchalar ularning iqtisodiy faoliyat sohalari ko‘rilayotganda ma’nodosh hisoblanmaydi. “Biznes” tushunchasi “tadbirkor”dan ancha kam ma’noga ega deb qaraladi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

G‘arb davlatlarining bozor iqtisodiyoti haqidagi adabiyotlarida – “biznes”- jamiyatning talab va xoxishlarini qondirishga karatilgan ishlab chiqarish tizimi” deb tushuntiriladi. Iqtisodchi olim Y. Shumpeter tadbirkorlik faoliyatining mulkchilik kategoriyasidan farqlagan va uni innovatsiya faoliyati bilan bog‘lagan [3]. Uning konsepsiyasi tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyatini va tarixiy missiyasini aniqlashda, tadqiq etishda eng samarali yo‘nalish bo‘ldi.

Tadbirkorlikni tatbiq etishda paydo bo‘lgan yangi bosqich D.Gelbreytning “Yangi industrial jamiyat” asari bilan bog‘liq. Bu iqtisodiy rivojlanish ma’lum pog‘onaga o‘sishi sababli, ya’ni ishlab chiqarish individual o‘sishdan yalpi standartlashgan shaklga o‘tishi bilan tavsiflanadi [4]. Ushbu vaziyatda bozorni asta-sekin o‘rganish, talabni istiqbollashtirish, yangi texnologiya va materiallarni yaratish talab qilinadi. Yangi paradigmada boshqarish ratsionalizatsiyadan tashkiliy xulq tadbirkorligiga o‘tish tushuniladi. Bu doimiy ravishda erishilgan darajani o‘zgartirishdan, bo‘lajak imkoniyatlar va xavflarni oldindan bilish, global muqobil harakat yo‘llarini izlashdan iboratdir.

Professor V.Shepelev “Tadbirkor” tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Tadbirkor bozor iqtisodiyotida xo‘jalik yuritishning asosiy subyekti hisoblanadi. Tadbirkor yakka shaxs sifatida ham ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi kishilar guruhi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkinki, bu kishilar o‘zlari ixtiyorida (tasarrufida) bo‘lgan ishlab chiqarish omillarini ishchi kuchi bilan, bu ishchi kuchini sotib olish va xo‘jalik faoliyatida undan foydalanish vositasida birlashtiradilar” deb tushuntiradi [5].

Akademik S.G‘ulomov, i.f.d. B.G‘oyibnazarovlarning ta’kidlashlaricha, “Hozirgi bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish sharoitida respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga alohida e’tibor qaratilib, bu jarayon yangi innovatsiyalar, tashabbuskorlikni talab etib, shular asosidagina (resurslarni tejab,sifatli mahsulot chiqarish yo‘li bilan) iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash mumkin. Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda rahbarlar fan va texnikada erishilgan eng so‘nggi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga alohida e’tibor qaratishlari lozim” [6]. Bu esa kichik biznesni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yunalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Iqtisodchi olim X.Abulqosimov “biznes” tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “biror faoliyat yuzasidan bo‘lgan munosabat, aniqrog‘i ishbilarmonlarning iqtisodiy munosabatidir. Keng ma’nosi – qonuniy yo‘l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir” [7]. Ushbu ta’riflarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, ularda tadbirkorlikning ichki mohiyatini ochib beruvchi bir qator yondashishlar mavjud bo‘lib, bular bozor iqtisodiyoti talablariga ham mos keladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunga asosan tadbirkorlik – fuqorolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo‘naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo‘lib, u fuqoroning o‘z nomidan, o‘zining tavakkalchiligi bilan hamda o‘zining yoki yuridik shaxsning (korxonaning) mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladi. Shunday qilib, tadbirkor to‘la yoki qisman moddiy mablag‘ga yoki moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan g‘ayratli inson bo‘lib, u ushbu resurslarni o‘z ishini (biznesini) tashkil qilish uchun ishga soladi. Uning tomonidan bunyod etilgan firma (tashkilot, shirkat, korxona) davlatimizda taraqqiy etayotgan kichik biznesning bir qismiga aylanadi. Ushbu keltirib o‘tilgan fikrlar hozirgi globallashuv sharoitida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish uchun asos bo‘lsada, ammo favqulotda holatlarni (pandemiya, tabiiy ofatlarni, va boshqalarni) nazarda tutilmaganligi ushbu mavzu doirasida chuqur tadqiqot olib borishni taqazo etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida hali katta va kichik korxonalarni ajratib beruvchi yagona mezon o‘rnatilmagan. Hozirgi vaqtda bir-biridan ajratuvchi alohida belgilarini aniqlash korxonalarning muhim sohalari bo‘yicha umumlashma belgilari katalogini bunyod etish orqali amalga oshirilmoqda. Bu borada jamoa, shirkat, oilaviy, xususiy korxonalari, firma va boshqa yuridik maqomiga ega bo‘lgan korxonalar ham o‘rta korxonalarni sanab o‘tish mumkin.

XX asrning so‘nggi choragida kichik biznes subyektlari yuqori sur’atlarda rivojlana bordilar va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillari bo‘lib qoldilar. Bugungi kunga kelib, keng rivojlanmagan kichik biznessiz zamonaviy iqtisodiyotni tasavvur etib bo‘lmaydi. U bir tomondan, qandaydir darajada yirik korxonalar bilan raqobatda bo‘ladi va shu nuqtayi nazardan iqtisodiyotni bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlariga, voqelikni tez-tez almashib turishiga iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish imkonini beradi.

Ikkinchi tomondan, kichik korxonalarning katta qismi yirik biznes bilan hamkorlik qiladi, ularga xos bo‘lgan texnik konservatizmni bartaraf etishga ko‘maklashadi. Kichik biznesni rivojlantirish bozorni iste’mol tovarlari bilan to‘ldirishga va hududiy monopolizmga barham berishga, raqobat muhiti vujudga kelishi hamda kengayishiga, ilmiy-texnika natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga va eksport salohiyatini yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kichik biznesning yana bir xususiyati nisbatan kam xarajatlar evaziga yangi ish o‘rinlari yaratish va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo‘shishi hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznes turli ijtimoiy guruhlar daromadlari o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni sarmoyadorlik darajasi yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltirishga, aholi daromadini oshirishga hamda iqtisodiyotning turli sektorlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi, jumladan:

- ulgurji va chakana savdo tizimi isloh qilindi va kichik tadbirkorlik korxonalariga infratuzilma boʻlinmalari tomonidan xizmat koʻrsatishning samarali tizimi yaratilmoqda;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda tadbirkorlik erkinligini kafolatlash tizimi shakllanmoqda;
- tadbirkorlarni Davlat roʻyxatiga olish va hisobga qoʻyishning yengillashtirilgan va xabardor qilish tartibi joriy etildi hamda birja savdolari orqali tadbirkorlarning moddiy-texnik resurslarni erkin sotib olishiga qulay shart-sharoit yaratildi;
- mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash jarayoni soddalashtirildi hamda soliq yukini pasaytirish va soddalashtirish choralari koʻrildi;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi va yangi ish boshlovchi tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish hamda boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimi joriy etildi.

Natijada, 2021-yil holatiga YAIMda kichik tadbirkorlikning hissasi 54,9 foizga yetdi. Kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha mahsulot ishlab chiqarishdagi hissasi sanoatda 30,1 foiz va qurilishda 72,4 foizni tashkil etdi1. Ayniqsa, kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyati asta-sekin kengayib bormoqda. Uning umumiy eksport xajmidagi ulushi 2021-yilda 22,3 foizni tashkil etdi. Ularning asosiy eksport mahsulotlarini – qishloq xoʻjaligi, toʻqimachilik, ishlov beruvchi, elektrotexnik ishlab chiqarish mahsulotlari, halq amaliy sanʼati buyumlari tashkil etmoqda.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hozirgi kun rivojlanishini chuqur tahlil qilish uchun ekonometrik tahlilini amalga oshirish maqsad qilingan holda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlarini tanlab olindi: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan tovar va xizmatlar hajmi – Y, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – X1, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushi – X2, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni – X3, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikningg asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi – X4. Dastlab ushbu tanlab olingan omillarning natijaviy omilga va oʻzaro ular oʻrtasidagi bogʻliqlik (krrelyatsiya) koeffitsiyentini aniqlab olamiz (1-jadval)

1-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan tovar va xizmatlar hajmiga taʼsir etuvchi omillarning korrelyatsion koeffitsiyenti

| | Y | X1 | X2 | X3 | X4 |
|---|---|---|---|---|---|
| Y | 1 | | | | |
| X1 | 0,675159 | 1 | | | |
| X2 | 0,61741 | 0,725582 | 1 | | |
| X3 | 0,965721 | 0,685374 | 0,693818 | 1 | |
| X4 | 0,941736 | 0,455288 | 0,481236 | 0,750868 | 1 |

Jadval qiymatlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, Natijaviy Y-omilga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi (rY,X1=0,675159), ), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushi (rY,X2=0,61741) oʻrtachadan kuchli zichlikda hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni (rY,X3=0,965721), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikningg asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi (rY,X4=0,941736) kuchli zichlikda bogʻlangan boʻlib, omillar oʻrtasida rx1,x2<0,8 shartga koʻra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bogʻliqlik oʻrtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin.

Tadqiqotlarga koʻra, mustaqillikdan keyingi oʻtgan yigirma sakkiz yil davomida viloyatda KBXT rivojlanish tendensiyalarini eksponensial, darajali, logarifmik, koʻrsatkichli, binominal va chiziqli funksiyalar yordamida tahlil qilganda chiziqli funksiyaning koʻproq real amaliyotni aniqroq ifodalashi namoyon boʻladi. Shu sababdan ham tanlab olingan omillar oʻlchov birliklari turlicha boʻlganligi bois, omil koʻrsatkichlarini logorifmlab chiziqsiz tenglamani hosil qilish bilan birga uni sifat mezonlari asosida tekshiriladi (2-jadval).

1 Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan tovar va xizmatlar hajmining koʻp omilli regressiya tenglamasi

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Dependent Variable: LnY** | | | | |
| **Method: Least Squares** | | | | |
| **Date: 02/25/21 Time: 08:20** | | | | |
| **Sample: 2000 2020** | | | | |
| **Included observations: 21** | | | | |
| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistik | Prob. |
| LnX1 | 5.043956 | 0.932438 | 5.409427758 | 0.0001 |
| LnX2 | -1.12100358 | 1.394239 | -0.804025407 | 0.0324 |
| LnX3 | 1.13150750 | 0.933943 | 1.21153807 | 0.0424 |
| LnX4 | 0.488818 | 0.282784 | 1.728591434 | 0.0509 |
| C | -19.200039 | 11.81623 | -1.624887041 | 0.0245 |
| | | | $t_{jad}$=2,119905299 | |
| R-squared | 0.991239 | Mean dependent var | | 16.98680 |
| Adjusted R-squared | 0.989049 | S.D. dependent var | | 2.506779 |
| S.E. of regression | 0.262326 | Akaike info criterion | | 0.365800 |
| Sum squared resid | 1.101040 | Schwarz criterion | | 0.614496 |
| Log likelihood | 1.159095 | Hannan-Quinn criter. | | 0.419774 |
| F-statistik | 452.5822 | Durbin-Watson stat | | 1.895196 |
| Prob(F-statistik) | 0.000000 | $F_{jad}$=0,171112236 | | |

Jadval ma'lumotlarida keltirilgan koeffitsiyentlar qiymatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tenglmani hosil qilinadi:

LnY=5,1LnX1-1,1207501LnX2+1,1315LnX3+0,5LnX4-19,200038719 (1)

Aniqlangan 1-regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistik mezonlari boʻyicha ahamiyatliligiga e'tibor qaratadigan boʻlsak, α=0,05 va df=16 boʻlgan holda tJad=2,119905299 ga tengligidan faqatgina kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi ($t_{X1}$=5.441604> $t_{Jad}$=2,119905299) ahamiyatli boʻlib, qolgan parametrlarning ahamiyatliligini retrospektiv sifat mezonlari MAPE (Mean Absolute Percentage Error – oʻrtacha mutloq foiz xatosi) va TIC (Tayl inequality coefficient – Teyl prognoz aniqligining muqobil oʻlchovi) bilan tekshirish talab etiladi.

Aniqlangan ma'lumotlarga asosan ta'kidlash mumkinki, MAPE=1,144 boʻlib, bu oʻz navbatida MAPE=1,144<10% prognoz aniqligi yuqori va TIC=0,0067<1 prognoz aniqligi qanchalik yuqori boʻlsa, koeffitsiyent shunchalik nolga intilishidan 1-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatliligi kelib chiqadi. Matematika qoidalariga va hisob-kitob jarayonlarini osonlashtirish hamda natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 1-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga koʻra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y = \frac{X1^{5.1} * X3^{1.1315} * X4^{0.5}}{X2^{1.1207501} * e^{19.200038719}} \quad (1^*)$$

Hosil qilingan 1*-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatliligini α=0,05 va k1=4; k2=16 boʻlganda FJad=0,171112236 ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati Fhis=452,6 tengligidan FJad shartga binoan 1*-regressiya tenglamasining ahamiyatliligi hamda DW=1,895 teng boʻlganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Aniqlangan 1*-regressiya tenglamasiga iqtisodiy izoh beradigan boʻlsak, unga koʻra, hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 1 foizga oshirishga erishilsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmini qoʻshimcha 61,3 mlrd. soʻmga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonini 1 taga koʻpaytirish 1,7 mlrd. soʻmga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning

asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmini bir mlrd. so‘mga oshirish esa 3,03 mlrd. so‘mga oshirish mumkinligi aniqlandi. Ammo shuni ta’kidlash joizki hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushini 1 foizga oshirilsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmi 8,9 mlrd. so‘mga qo‘shimcha kamayishi aniqlanib, bu o‘z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishchilarga nisbatan to‘yinganligini ko‘rsatmoqda.

Endi aniqlangan 1*-regressiya tenglamasidan foydalanib qolgan omillarni vaqt (t=22) bo‘yicha quyidagi tenglamalari bo‘yicha:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – X1=22,4+1,5*t;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushi – X2=46,7+1,5*t;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni – X3=49688+17215*t;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikningg asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi – X4=-14217543,5+5457756,1*t.
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmining ko‘p omilli prognoz ko‘rsatkichini aniqlanadi (3-jadval).

3-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmining ko‘p omilli prognoz ko‘rsatkichi

| Yil | KBXTda yaratiladigan mahsulot va xizmatlar hajmi, mln. so‘m | KBXTning YAIMdagi ulushi, foiz | KBXTda bandlarning respublika iqtisodiyotidagi umumiy bandlar sonidagi ulushi, foiz | KBXT subyektlari soni, birlik | KBXTga ajratilgan investitsiyalar, mmln. so‘m |
|---|---|---|---|---|---|
| 2021 | 641474523,8 | 55,4 | 79,7 | 428418 | 105853090,7 |
| 2022 | 771886042 | 56,9 | 81,2 | 445633 | 111310846,8 |
| 2023 | 923202012,7 | 58,4 | 82,7 | 462848 | 116768602,9 |
| 2024 | 1097952614 | 59,9 | 84,2 | 480063 | 122226359 |
| 2025 | 1298882477 | 61,4 | 85,7 | 497278 | 127684115,1 |
| 2026 | 1528961599 | 62,9 | 87,2 | 514493 | 133141871,2 |

Jadvalda keltirilgan prognnoz natijalariga ko‘ra, 2026 yilga borib kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmi 2020-yilga nisbatan 2,4 barobarga o‘sib, 1528,9 trln. so‘mga yetishi bu esa albatta, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushini bazis davrga nisbatan 7,5%, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushini ham 7,5 %, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni 20,1 % hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmini 25,8 foizga oshishi bilan belgilanishi kutilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat davlat va jamoat taraqqiyotida, balki har bir insonning yuksalib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega, ya’ni xizmat ko‘rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish kabi sohalarda ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo‘ladi.

Chunonchi, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali:

- o‘rta mulkdorlar sinfi shakllanadi;
- makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchillik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi;
- sog‘loq raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YAIMning miqdor va sifat jihatidan o‘sishi kuzatiladi;
- ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to‘yinadi va ularning sifati oshadi;
- pirovardida aholi turmush darajasining o‘sishiga erishiladi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni rivojlantirish konsepsiyasida asosiy e'tibor birinchi navbatda faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy salohiyatga ega kichik biznes subyektlarini qo'llab – quvvatlash, tarmoq va hudud uchun zarur, ammo, past rentabelli sohalar rivoji uchun qulay imkoniyatlar yaratish, respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy siyosati yo'nalishlari va maqsadlariga mos faoliyat yuritayotgan xo'jalik tuzilmalarini rag'batlantirish, hududiy ahamiyatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarga soliq imtiyozlari belgilash, lizing xizmati hamda investitsion xatarlarni sug'urtalash tizimini kengaytirish va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan kichik tadbirkorlik korxonalarining bank kreditlaridan foydalanishiga yo'l ochuvchi sharoitlarni yaratishga qaratilmog'i kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston Xalqiga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, № 272 (8334).
2. IMF STAFF COUNTRY REPORTS.
3. http://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2015/sdn1504.pdf.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития.пер. с. Англ. –М.: Прогресс, 1992, 169-170, 183 б.
5. John Kenneth Galbraith. The New Industrial State. American Journal of Agricultural Economics 70(4): 2015, 1-518. DOI:10.2307/1241945
6. Shepelev V. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik. Soliq to'lovchining jurnali, 1996. №7, 30 b.
7. G'ulomov S, G'oyibnazarov B. Iqtisodiy yuksalish omillari. // Xalq so'zi, 2007-yil 27-fevral.
8. Abulkosimov, Hasan Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashning roli. 2016/05/18 https://www.researchgate.net/publication.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.